



UDK:1174

*Durdona ISMATULLAYEVA,*  
*Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti, o'qituvchi*  
*E-mail: donagulim@gmail.com*

*NamDTU "Xorijiy tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi PhD D.Azimova taqrizi asosida*

## TEACHING SPECIALIZED SUBJECTS IN A FOREIGN LANGUAGE: PROBLEMS AND METHODOLOGICAL APPROACHES

Аннотация

The article examines the theoretical and practical aspects of teaching specialized subjects in English through ensuring interdisciplinary integration and close interconnection between academic disciplines. The author analyzes methodological approaches aimed at strengthening the integration of subject knowledge and language learning in modern education, adapting the content of education to the requirements of professional activity, and developing students' professional communicative competence. Furthermore, the didactic possibilities of effectively organizing interdisciplinary integration in the process of teaching specialized subjects in English are identified, and practical recommendations and proposals aimed at implementing this process are developed.

**Keywords:** terminology, specialist, professional texts, labor market, worldview, higher education, project, professional training, reading, writing, comprehension, grammar, lexicology, problems, solutions, modern period, communication, environment, modern specialists, pedagogical mastery, critical analysis, discussion, interest, question-answer method, text, vocabulary, organization.

## ПРЕПОДАВАНИЕ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ И МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты преподавания профильных предметов на английском языке на основе обеспечения междисциплинарной интеграции и взаимосвязи учебных предметов. Автор анализирует методические подходы, направленные на усиление интеграции предметных знаний и языковой подготовки в современной системе образования, адаптацию содержания обучения к требованиям профессиональной деятельности, а также развитие профессиональной коммуникативной компетенции студентов. Кроме того, раскрываются дидактические возможности эффективной организации междисциплинарной интеграции в процессе преподавания профильных дисциплин на английском языке, а также разработаны практические рекомендации и предложения по реализации данного процесса.

**Ключевые слова:** терминология, специалист, профессиональные тексты, рынок труда, мировоззрение, высшее образование, проект, профессиональная подготовка, чтение, письмо, понимание, грамматика, лексикология, проблемы, решения, современный период, коммуникация, образовательная среда, современные кадры, педагогическое мастерство, критический анализ, обсуждение, интерес, метод вопросов и ответов, текст, словарь, организация.

## MUTAXASSISLIK FANLARINI XORIJIY TILDA O'QITISH: MUAMMOLAR VA METODIK YONDASHUVLAR.

Аннотация

Maqolada fanlararo integratsiya va o'quv fanlari o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlash orqali mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Muallif tomonidan zamonaviy ta'lim jarayonida fan va til integratsiyasini kuchaytirish, ta'lim mazmunini kasbiy faoliyat talablariga moslashtirish hamda talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani samarali tashkil etishning didaktik imkoniyatlari ko'rsatilib, bu jarayonni amalga oshirishga xizmat qiluvchi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Terminologiya, mutaxassis, professional matnlar, mehnat bozori, dunyoqarash, oliy ta'lim, mutaxassis, loyixa, kasbiy tayyorgarlik, o'qish, yozish, tushunish, grammatika, leksikologiya, muammolar, yechim, davr, muloqot, muhit, qism, zamonaviy kadrlar, pedagogic mahorat, tanqid, tahlil, tushuncha, muhokama, qiziqish, savol-javob, matn, lug'at, tashkilot.

"Bitta tilni bilish insonlarni hayot yo'lagiga olib boradi. Ikkita tilni bilish yo'ldagi barcha eshiklarni ochadi." Frenk Smit

**Kirish.** Dunyo rivojlangan sari bilim chegaralari ham o'zgarib bormoqda. Insonlarda ta'limga nisbatan ustuvorliklar va dunyoqarashlar ham borgan sari kengaib bormoqda. Ayniqsa chet tillar bilimiga talab brogan sari kuchayib bormoqda. Bugungi kun Oliy ta'lim muassasalari oldida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash vazifasi turibdi. Kasbiy faoliyatda xorijiy tillarni bilish so'nggi kashfiyotlardan xabardor bo'lishga yordam beradi. Ularni turli mamlakatlardan kelgan

mutaxassislar bilan muhokama qilish va jahon tajribasini o'rganish imkonini beradi. Xorijiy tillarni o'rganish orqali zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh va talabga mos bo'lgan kadrlarni kasbiy tayyorlash yagoana va muhim omil bo'lib qolmoqda, shuning uchun ham chet tillarni o'qitishning zamonaviy usullarini ko'rib chiqish va ular asosida mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'qitishning eng mos metodologiyasini ishlab chiqish bugungi kun ta'limining eng

dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Bugungi kun ta'lim sharoitida chet tillarni yaxshi biladigan mutaxassislarni tayyorlash muammosi dolzarbdır. Biroq nofilologik yo'nalishi mutaxassislarni tayyorlovchi Oliy ta'lim muassasalari talabalarining til o'rganishi uchun bo'lgan qiziqishini uyg'otish pedagoglar uchun bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi. Ayniqsa mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'qitishda bir qancha muammolar mavjud. Bu kabi munozarali masalalarning yechimini topish hamda xorijiy tillarni o'rgatishning samarasi va natijasini aniqlab bo'lmaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xorijiy davlatlar olimlari J.Culler, S.Kannigisser, G.Leech, H.P.Gricelarning ilmiy izlanishlarida pragmalıngvıstika muammolari, xususan, so'zlarning matndagi ma'nolarini aniqlash hamda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-madaniy, psixologik va lingvistik jihatları ochib berilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan E.S.Aznavrova, L.M.Vasilev, A.I.Vlasenkov, T.B.Dudina, I.A.Zimnyaya, L.G. Luzina, V.N.Marov, V.G.Myasnikov, O.I.Okulovskiy, M.A.Pautova, G.G.Pocheptsovlarning ilmiy izlanishlarida talabalarida kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik hamda integral-pedagogik jihatları chuqur tadqiq etilgan. Ushbu olimlar tomonidan ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim modeli hamda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan nazariy va metodik asoslar ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, xorijiy olimlar V. Chandra Sekhar Rao, James W. Porcaro, shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar G. Dadamirzayev, Q. Fayzullayev va A. Hasanovlar tomonidan mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitish, ya'ni kasbiy yo'naltirilgan til ta'limini tashkil etish masalalari o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida ingliz tilini kasbiy faoliyat bilan integratsiya qilish, mutaxassislikka oid terminologiyani o'rgatish, ESP (English for Specific Purposes) metodikasini ta'lim jarayoniga joriy etish hamda talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Mazkur tadqiqotlar mutaxassislik fanlarini xorijiy tilda o'qitishning pedagogik va metodik jihatlarini ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, zamonaviy oliy ta'lim tizimida mutaxassislik fanlari va xorijiy til o'rtasidagi integratsiyani yanada takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda talabalarni xalqaro professional muhitga tayyorlash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli ushbu maqolada mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitishning metodik asoslari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan samarali pedagogik yechimlar tahlil qilinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yurtimizdagi texnika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'zlashtirishda past natijalar muammosi ikkita echimga ega bo'lishi mumkin: tashkiliy va uslubiy. Tashkiliy tomondan, amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan vaqtni qayta taqsimlash sharti bilan, ikkinchi tomondan, mustaqil va amaliy ishlarni tashkil etishda qo'llaniladigan metodikadagi noxolislikni bartaraf etish sharti bilan mavjud natijalarni yaxshilash mumkin. Uslubiy tomondan fanni o'zlashtirish uchun mo'ljallangan darslik, uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalarni takomillashtirish va talabaga tushunarli soddā, ravon va qiziqarli topshiriqlardan tashkil topgan darsliklar yaratish lozim. Axborot kommunikatsion texnologiyalar rivojlanishida har xil gadgetlar, smartfonlar va boshqa texnikalardan unumli foydalanishimiz zarur. Shuning uchun ham yoshlarni ta'lim olishga qiziqtirish uchun asosan elektron darsliklar, termonologik lug'atlar yaratib har bir fanni moddiy-uslubiy boyitishimiz zarur.

Yana bir dolzarb masalalardan biri talabalarda xorijiy tillarni o'rganish motivatsiyani rivojlantirishdan iborat. Ba'zida ta'lim muassasasining hududiy joylashuvi ham chet tilidagi muloqot muhitining paydo bo'lishi uchun asosiy ahamiyatga egabo'lishi mumkin. Shuning uchun ham OTMning geografik joylashuvidan qat'iy nazar, bunday muhitni sun'iy ravishda yaratish ham o'rganish uchun barqaror motivatsiyani shakllantirishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, chet tilidagi muloqot muhitini yaratishning samarali usullaridan biri xorijiy tilda onlayn va oflayn taqdimotlarni, ochiq darslarni, xalqaro konferensiyalar, universitetlararo talabalar almashinuvi va qiziqarli uchrashuvlarni tashkil qilishdir. Bunday yondashuv chet tili nutqida yetarli malakaga ega bo'lishi kerak bo'lgan fan o'qituvchilarini keng miqyosda kasbiy qayta tayyorlashni talab qiladi. Shunga qaramay, bu kabi yondashuvga tayanib ish olib borilsatalabalarda xorijiy tillarni o'rganish uchun motivatsiya shakllanadi. Agar motivatsiyaning mavjudligi chet tilini o'rganish uchun turtki bo'lsa, unda keyingi o'qitishning tegishli tamoyillari, usullari va tizimiga asoslangan mashg'ulotlar va talabalarining mustaqil ishlarining to'g'ri tanlangan kombinatsiyasiga bog'liq.

**Tahlil va natijalar.** Texnika OTMlarida xorijiy tillarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, Ya.A. Komenskiy fikricha til o'rganishda bosqichma-bosqichlik, foydalilik, izchillik, kuch, individual farqlarni hisobga olgan holda mustaqillik berish amaliyotiga tayanib lozim[1]. Shuningdek, Makkeyning ilgari surgan nazariyasida: "Xorijiy tillarni o'zlashtirishda ona tilini qay darajada bilishning hisobga olinishi lingvistik tamoyili; talabaning shaxsiy kognitiv printsipi; hissiy-psixologik tamoyil: lingvistik "men"ini shakllantirish (chet tilida gapirishdan qo'rqish va noaniqlik kabi salbiy hissiy omillarni bartaraf etish) va o'rganilayotgan til mamlakatining tili va madaniyatini o'zaro bog'liq holda o'zlashtirish"[2]

Yuqoridagi tamoyillarga tayanib, mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'rgatishning samarali usullarini qo'llash lozim. Bu esa tegishli o'qitish usullarini tanlashga yo'nalish beradi. O'qitish usuli - bu o'qituvchining o'quvchilar uchun bilim berish faoliyatini tashkil etish, uning ta'lim mazmunini o'zlashtirishini va shu bilan o'quv maqsadiga erishishini ta'minlaydigan maqsadli harakatlari tizimi. Har bir o'qitish metodi tuzilmasida darsda metod mazmunini amalga oshiruvchi o'qitish usullarini aniqlash mumkin. Ta'lim texnikasi - bu o'qituvchining o'ziga xos harakatlari va operatsiyalari bo'lib, uning maqsadi bilimlarni etkazish, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, o'quv jarayonining aniq muammolarini hal qilish uchun talabalarining o'quv faoliyatini rag'batlantirishdan iborat.

Zamonaviy didaktik adabiyotlarda chet tilini o'qitish metodikasi va usullarining ko'plab tasniflari mavjud (E.I.Passov, I.L.Bim, A.N.Shchukin va boshqalar). Xususan, A.N.Shchukin o'qitish usullarini 4 guruhga ajratadi: to'g'ridan-to'g'ri (masalan, tabiiy, audiovizual, audiolıngual va boshqalar); ongli (grammatik-semantik, ongli-kontrastiv va boshqalar); estrodiol (kommunikativ, tandem usuli); intensiv (emotsional-semantik, taklifopedik va boshqalar).

Transkripsiya: Transkripsiya bosqichida o'qituvchi o'z o'quvchilarini yozma yoki og'zaki mazmun bilan tanishtiradi. Ko'pgina materiallarda chet tilidagi matn sahifaning chap yarmida, tarjimai esa o'ng tomonda joylashgan bo'ladi.

Ishlab chiqarish: Talabalar maqsadli tilda uzilishlarsiz yoki tuzatishlarsiz o'z-o'zidan gaplashadi va o'zaro ta'sir qiladi. Sodaroq qilib aytganda - bu talabalarining horijiy tillarda xato qilishdan qo'rqmasdan erkin muloqot qilishni ifodalaydi. Bunda bir nechta usullar mavjud.

Til tuzilmalarining takrorlanishiga asoslangan audiolıngual usul;

Til muhitiga singdirish usuli;

Grammatika-tarjima usuli, grammatikani tizimli o'rganishga asoslangan, haqiqatga eng yaqin bo'lgan muloqot sharoitida og'zaki nutqni o'rganishga qaratilgan tabiiy usul;

Strukturaviy modellarni ishlab chiqishga asoslangan strukturaviy usul

Mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'qitishda bu kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulot davomida talabalarga ma'lum bir kasbiy texnik topshiriq beriladi, ular bir qator tegishli matnlarni o'qish, tarjima qilish va topshiriqlarni bajarish, shuningdek, leksik mashqlarni bajarish bilimlarini mustahkamlashi mumkin bo'ladi. Bu metod orqali talabalaridagi o'z kasbiga va tanlagan yo'nalishiga qiziqishi orqali, lingvistik ta'lim motivatsiyasini ham shakllantiriladi.

Nofilologik OTMLarda mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o'qitilishining eng dolzarb muammolaridan yana biri bu, chet tillarni yaxshi biladigan mutaxassis pedagogning yetishmasligidir. Shu masalani bartaraf etish uchun davlatimiz rahbari va Oliy ta'lim tizimida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan til bilish darajasini ko'rsatib beruvchi sertifikatga ega har qanday hodim oylik maoshiga ustamalar belgilanishi, xorijiy tillarda darslik, qo'llanmalar yaratgan pedagog hodimlar munosib taqdirlanishi shular jumlasidandir. Biroq pedagog hodimlarning o'z kasbiy faoliyatidan ortib xorijiy tillarni o'rganishi ham oson emas. Buning yechimi ham talaba ham mutaxassis o'qituvchi birday foydalana oladigan darsliklar, qo'llanmalar, tematik va terminologik onlayn va offlayn lug'atlar, sun'iy intellektga asoslangan audio va video bloglarni yaratishdan iborat. Bu kabi yordamchi qo'llanmalar orqali har qanday mutaxassis professional ta'limni xorijiy tillarda olib boorish samarasiga, ma'lum miqdorda erishishi mumkin.

Jahon tajribasidan ma'lumki. ESP (ingliz tilini ma'lum maqsadlar uchun o'qitish) metodikasi mavjud. Masalani dolzarbligida keltirilganidek ingliz tili fanini soatlari qisqarishi muammo hisoblanmasligi lozim. O'quv soatlarini qisqarishida fandagi asosiy terminologiya, o'qitish va o'rganish masalasini berilgan ingliz tili soatlarida tushuntirish yetarli hisoblanadi. ESP metodikasi orqali talabalarining 3-4 kurslarida o'qitiladigan mutaxassislik fanlarini aynan ingliz tilida olib borilishi orqali sohaga oid terminlar, tushunchalar va boshqalarni aynan ingliz tilida olib borilishi orqali aynan sohaga oid terminlar, tushunchalar va boshqalarni aynan ingliz tilida o'rganish davomida ingliz tilida so'zlashish, yozish o'qib tushinish eshitish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. ESP metodikasini texnika sohasida qo'llash ko'zlangan maqsadga erishishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu orqali fanlararo bog'lanish va integrasiyani amalga oshirishning aniq mexanizmini sifatini qo'llash mumkin bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Hulosa qilib aytganda, zamon bilan hamnafas bo'lish uchun, talaba-yoshlarimizni jahon talabiga mos yetuk kadr qilib yetishtirishda eng zamonaviy bilimlarni berish, kasbga yo'naltirgan ta'limni tashkil etish, sohaga oid fanlarni ingliz tilida o'qitishni tashkil etish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Chunki eng ilg'or texnika va texnologiyalar, yangi innovatsion ishlanmalar haqidagi ma'lumotlar aynan ingliz tilida berilishi nuqtai nazaridan ham mutaxassislik fanlarini ingliz tili fani bilan o'zaro integrasiya qilish, fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish zarur. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ingliz tili fanini soatlarini kamayishi mutaxassislik fanlarini aynan ingliz tilida o'qitilishi yordamida tayyorlanayotgan kadrlarning ingliz tili ko'nikmasini rivojlantirishda muqobil yechim bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus. Elektron manba: <https://www.gazeta.uz/oz/2019/04/03/5-tashabbus/>
2. Qahharov.A.A. Talabalar fazoviy tasavvurini oshirishning optimal usuli. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya. Toshkent 2013 yil
3. Qahharov A. A. Xidirov. S. Ispolzovaniye SAPR AutoCAD v praktike prepodovaniya graficheskix disciplin. Grafika XXI veka. Tezisi dokladov XIV Vseukrainskoy Studencheskoy nauchno-texnicheskoy konferensii- Sevastopl.2011.145-147s.
4. Ortikov, N. B., & Amandzhanovna, I. D. (2022). Modern teaching methodology of english science. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1839-1846.
5. Amandjanovna, I. D. (2022). Ingliz Tili Fanini O 'Qitishda Zamonaviy Usul Va Vositalarni Qo'llash Metodikasi. Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnal, 2(6), 11-15.
6. Amandjanovna, I. D. (2022). Ingliz Tili Fanini O 'Qitishda Talabalar Bilimi Rivojlantirish Va Nazorat Qilishning Zamonaviy Mexanizmlari. Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnal, 2(6), 19-23.
7. Azamov, S. (2022). The emergence of english and uzbek terms used in the field of textiles and light industry and their characteristics. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3598-3602.
8. Ричардс, Дж.К. и Роджерс, Т.С. (2001). Подходы и методы в преподавании языков (2-е изд.). Кембридж: Издательство Кембриджского университета
9. Баур, Р.С. (1984). Die Psychopädische Variante der Suggestopädie (Psychopädie). In Bauer, H.L. (Ed.), Unterrichtspraxis und theoretische Fundierung in Deutsch als Fremdsprache. (pp. 291-326 ). München: Goethe-Institut.
10. Lukesch, H. (2000): Lernen ohne Anstrengung? Der Sirengesang der geheimen Verführer. Zeitschrift für Pädagogische Psychologie/German Journal of Educational Psychology, 14, 59-62.
11. Финал взаимопонимания. Рабочая группа экспертов по суггестологии и суггестопедии. ЮНЕСКО. София. 1980. ED / SCM / MMT, Изд.80 / WS / 160. Проверено 22 июля 2023 года.
12. Amandjonovna, D. I. (2023). Lingvistik ta'limni tashkil etilishida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish (texnika yo 'nalishi otmilari misolida): lingvistik ta 'limni tashkil etilishida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish (texnika yo 'nalishi otmilari misolida).
13. Amandjonovna, I. D. (2023). Bo'lajak muhandislarning xorijiy tillarni o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirish usullari. Строительство и образование, 4(5-6), 153-157.
14. Ismatillayeva, D. (2019). teaching culture of communication in english. Экономика и социум, (3 (58)), 30-33.
15. Komentkiy Ya.A. Tanlangan pedagogik ishlar. "Tafakkur antologiyasi" turkumi. M.: "Urayt" nashriyoti, 2019
16. Zakarneh B. Arab universiteti talabalar orasida ingliz tilini o'zlashtirishda to'siq sifatida til ego. Britaniya ingliz tilshunosligi jurnali. 2018. jild. 6. No 3. R. 40-55